

## MAKTABLARDA XORIJY TILNI O‘RGATISHDA YOZISH VA GAPIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

**Qodirova Muharram Zoyidjonovna**

*Andijon viloyati*

*Oltinko‘l tumani 2-umumta‘lim maktabi ingliz tili o‘qituvchisi*

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada chet tillarini o‘qitish kompetensiyalari hamda chet tillarini o‘rganishda o‘qish, tinglab tushunish hamda yozish va gapirishning afzalliklari va o‘quvchilarda ushbu jarayonni rivojlantirish haqida so‘z yuritiladi.*

### **Kalit so‘zlar**

*chet tili, o‘qish, gapirish, tinglab tushunish, qiziqish, rivojlantirish, samarali usullar, faoliyat.*

XXI asr fan va texnologiyalar ilg‘or taraqqiy etayotgan hamda o‘qib izlanuvchan yoshlar asridir. Hozirgi zamonimizni ommaviy axborot vositalari hamda yetakchi o‘rinlarda qayd etilib turgan chet tillarisiz tasavvur etish qiyin. Bugungi kunda xalqaro aloqalarning kengayishi munosabati bilan chet tillarini o‘rganish hamda o‘rgatish kundalik hayotning muhim omillaridan biri bo‘lib bormoqda. Maktablarda o‘quvchilarga xorijiy tilni o‘rgatishning asosiy maqsadi –nutq faoliyatini izchil va tizimli rivojlantirish, ya‘ni, gapirish, yozish, o‘qish va tinglash kabi faoliyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu o‘rinda nutq faoliyatiga qisqacha ta‘rif berib o‘tadigan bo‘lsak, ushbu faoliyat til tizimi orqali ifodalangan va muloqot holatiga bog‘liq bo‘lgan xabarlarini uzatish va qabul qilishning faol hamda maqsadli jarayonidir.

O‘zbekiston miqyosida ingliz tili, rus tili, fransuz tili, nemis tili kabi chet tillarini o‘qitish bugungi kunning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lib bormoqda. Ayniqsa ingliz tili kun sayin bizning ikkinchi tilimizga aylanib bormoqda. Ingliz tilini o‘rganishning ham bir nechta tarkibiy qismlari mavjud: gapirish, tinglash, o‘qish va yozishda muloqot qobiliyatlari. Shular ichidan gapirish va yozish eng muhim omil hisoblanadi.

Gapirish – nutq faoliyatining asosiy turi bo‘lib, u orqali muloqot jarayoni amalga oshiriladi. Fikr og‘zaki shaklda ifodalanadi hamda talaffuz, leksik va Grammatik qobiliyatlarga asoslanadi. Maktablarda ingliz tili darslarida nutqni o‘rgatishning maqsadi – o‘quvchiga umumiy qabul qilingan kundalik muloqot darajasida o‘quvdan tashqari nutq amaliyotida foydalanishga imkon beradigan ko‘nikmalarni shakllantirishdir. Xorijiy tilde gapirishni o‘rgatish sifatida to‘rt omil mavjud:

- Aloqa amalga oshiriladigan voqealik sharoitlari;
- Rasmiy va norasmiy aloqa vakillari o‘rtasidagi munosabatlar;
- Nutq(gapirish) motivatsiyasi;
- Yangi vaziyatni, gapirishni rag‘batlantirishni yuzaga keltiradigan muloqot harakatining o‘zini amalga oshirish.

Yozish – fikrni grafik shaklda ifodalashni ta‘minlaydigan nutq faoliyatining samarali turi. Chet tilini o‘qitish metodikasida yozma va yozma nutq chet tilini o‘qitishning vositasi hamda maqsadi sifatida xizmat qiladi. O‘quvchilarda yozma nutq qobiliyatlarini shakllantirish uchun yozma bayonotda o‘rganilayotgan til modellariga mos keladigan jumladan foydalanish, leksik, imlo va Grammatik me‘yorlarga muvofiq modellarni qurish, yozma muloqotning muayyan shakliga xos bo‘lgan formulalardan foydalanish, yozma bayonotni izchillik bilan taqdim etish eng samarali usullar hisoblanadi.

O‘quvchilarning imlo ko‘nikma va malakalarining ma‘lum darajasiga erishgandagina yozuv samarali o‘quv quroliga aylanishi mumkin. Yozma nutqni o‘rgatishning maqsadi o‘quvchilarning yozma kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdan iborat bo‘lib, u yozma belgilarga ega bo‘lishni, lingvistik va faktik bilimlarni tejash imkonini beradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash joizki, maktablarda xorijiy tillarni o‘qitish hamda uning barcha qirralarini o‘rganish yurt istiqbolini yuksaltirishga xizmat qilishini yoshlar tafakkurida rivojlantirish nafaqat pedagogning, balki, butun jamiyatning zimmasida ekanligini anglab yetishga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Rasulova M.K. “Chet tillarini o‘qitishning zamonaviy usullari” 3-nashr. Nukus:ARKTI,2017.
2. Botirova A.A, Solovova E.N. “Chet tillarini o‘qitish metodikasi” 4-nashr AST-Astrel, 2020.
3. [www.blog.xabar.uz](http://www.blog.xabar.uz)
4. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
5. [www.uza.uz](http://www.uza.uz)
6. [www.cyberleninka.ru](http://www.cyberleninka.ru)
7. [www.tarbiyachilar.uz](http://www.tarbiyachilar.uz)